

**O'QUV JARAYONIGA TALABALARNI MOSLASHTIRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.**

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Raximov Zoyir Jumayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti

Ramazonov Jahongir Djalolovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning o'quv jarayoniga moslashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Hamkorlik pedagogikasi, integrative innovatsion texnologiya, pedagogik hamrohlik, propedevtik-tashxisiy, konstruktiv aloqa, strategik monitoring, taktik va tezkor monitoring, kostruktivlik, kommunikativ ko'nikma.

Respublikamizda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni shakllantirishda va bu borada ta'sirchan mexanizmlarni, yangicha tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini yaratishga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavr yo'nalishida pedagogik tashxislash va korreksiyalashni qo'llash o'ziga xos xususiyatga ega. Talabalar deganda moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan qoida va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi.

Oliy o'quv yurtidagi ta'limning o'ziga xos xususiyatlari talabalarning boshqa ijtimoiy guruhlar bilan (ular xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lishidan qat'iy nazar) muloqotga kirishish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Talabalik davrimng asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy yetuklik (kamolot) shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni hamda ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashda (oila qurishda), farzandlarni tarbiyalashga, foydali mehnatga qatnashishga (mas'ul vazifada ishlashga) tayyorlashni talab qiladi. Mazkur jarayonning bosh mezonlari va ko'rsatkichlari o'rta

ma'lumotlilik, jamoatchilik topshiriqlari, mehnatda faollik ko'rsatish, qonunlar oldida javobgarlik, mutaxassis imkoniyati, unga intilish tuyg'usi, ijodiy kamolotga erishish, yosh otalik va onalik burchi, ijtimoiy guruhga rahbarlik qilish, sport bilan shug'ullanish, bo'sh vaqtni maqsadli va mazmunli tashkil eta olish, to'garaklarda qatnashish va boshqalardan iborat.

Talabalik davri o'spinnlikning ikkinchi bosqichi bo'lib, u 18-23 yoshni qamrab oladi va o'zining betakror xususiyatlari hamda qarama-qarshiliklari bilan tavsiflanadi. Talabalik davri shaxsning ijtimoiy hamda kasbiy mavqeini anglashdan boshlanadi. Bu davrda o'spirin o'ziga xos ruhiy inqiroz yoki tanglikni boshidan kechiradi. Ayniqsa, kattalarning har xil ko'rinishlardagi rollarini tez sur'atlar bilan bajarib ko'rishga intiladi, turmush tarzining yangi jihatlarga ko'nika boshlaydi. Katta odamlaming turmush tarziga o'tish jarayoni shaxsning kamol topish xususiyatlariga bog'liq ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Oliy ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyalashning asosiy vazifasi - talabalarni mustaqil bilim olishga, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilishga, o'zini o'zi boshqarishga, o'z faoliyatini nazorat qilishga, o'ziga o'zi tanqidiy yondoshishga, faoliyatida yangi qoidalarni ishlab chiqishga o'rgatish, xulqming eng muhim sifatlari - mustaqillik, o'z pozitsiyasida tura olish va himoyalash, tashabbuskorlik, topqirlik, ziyraklik, qiziquvchanlik, farosatlilikni o'stirishga yordam berishdan iborat. Talabalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini rejalashtirishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ayrim hollarda ichki va tashqi vositalar, omillar ta'siri ostida uning ruhiy dunyosiga umidsizlik, ruhiy parokandalik kayfiyati, istiqbolga ishonmaslik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his-tuyg'ular namoyon bo'ladi. O'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonmaslik, o'qishga nisbatan esa salbiy munosabatning kelib chiqishi talaba ruhiyatida keskin tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buning oqibatida ayrim yoshlar o'ta zararli oqimlarga - aqidaparastlik, terrorchilik illatlariga qo'shib qolishi, giyohvandlik, ichkilik, qimorbozlik, turli jinoyat ishlari kabi jirkanch yo'llarga kirib qolishlari mumkin.

Talabalar faoliyatida bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira, tasawur, xayol, tafakkur va nutq) katta rol o'ynaydi. Yuqori sinf davrida vujudga kela boshlagan tafakkurning mustaqilligi, teranlik, ixchamlik, tashabbuskorlik, tanqidiylik sifatlari kun sayin takomillashib, talabalarda o'z-o'zini nazorat qilish va aql-zakovatning muhim jihatlari taraqqiyotning yuksak bosqichiga ko'tariladi. Oliy ta'limdagi mustaqil ishlarning barchasi. konspekt tuzish, referat, annotatsiya, tezis, seminarga hozirlik, kurs va diplom ishlari talabalardan mustaqillikni, ijodiy yondashishni (kreativlikni), muammoli holatni va murakkab pedagogik vaziyatni hal qilishni taqozo etadi.

Ta'lim jarayonida fikr yuritish operatsiyalaridan unumli foydalanish evaziga har qanday murakkab bilimlarni egallash imkoniyati vujudga keladi. Talabalar tafakkur shakllari (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish)ning operatsion va funksional jihatlari bilan yaqindan tanishadilar, shuningdek, ulardan foydalanish uchun barcha intellektual zahiralarni ishga solishga harakat qiladilar.

Hukm chiqarishning barcha. yakka, xususiy, umumiy, ziddiyatli, faraziy, inkor ko'rimshlaridan o'quv va mustaqil bilim olish faoliyatlarida foydalanish shart-sharoitlari tug'iladi. Xulosa chiqarishning induktiv (fikrning xususiydan umumiyga yo'nalganligi) va deduktiv (fikrning umumiydan xususiy holga qaratilganligi) yo'llaridan muayyan tarzda bilish faoliyatiga intiladilar.

Bu narsalarning barchasi tafakkumi rivojlantirishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Hozirgi zamon talabalarining ijodiy tafakkur orqali vujudga keltirgan badiiy asarlari, taklif etilgan ratsionalizatorlik takliflari xalq xo'jaligini yuksaltirish, mustaqil respublika fan va texnikasini rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish uchun xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, talabalar faoliyatida bilish jarayonlari muhim o'rin egallaydi. Talabalar ilmiy faoliyatining muhim xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi;

- 1) Barcha maqsadlar o'quv maqsadlariga bo'ysundiriladi;
- 2) Asosiy motivlar bilish motivlari hisoblanadi;
- 3) Ilmiy ishlar o'qituvchilar va ilmiy xodimlar rahbarligida amalga oshiriladi.

Talabalarning ilmiy ishlarda ishtirok etishdan maqsadi - kasbiy mustaqillikni, mehnat faoliyatiga borganda amaliy vazifalarni ijodiy hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, talabaning ilmiy faoliyati - bu shaxsning ma'lum darajada o'zini ifodalashi, hayotda o'zini ko'rsatishga intilishidir. Ilmiy ishlarda ishtirok etish motivlari birinchi kursdayoq paydo bo'ladi. Ilmiy ijod motivlarini kuchaytiradigan muhim omillar birinchi kurs talabalariga o'qituvchilarning, yuqori kurslarda o'z o'rtoqlarining ta'siri katta bo'ladi.

Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatining maqsadi va motivlari shakllantirishning asosi ularda mustaqil ishni tashkil qilish hisoblanadi. Talabalarning asosiy ilmiy tadqiqot ishlarini quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kurs ishlari. 2. Ilmiy referatlar. 3. Olimpiadalarda ishtirok etish. 4. Talabalar anjumanlarida ishtirok etish. 5. Diplom ishlari 6. Magistrlik dissertatsiyalari.

Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligi haqida ularning seminarlardagi chiqishlarining ijodiy darajasiga qarab emas, balki, kurs va diplom ishlarining sifatiga hamda yuqori reyting ballariga qarab ham xulosa chiqarish mumkin. Talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganayotgan sohalari asosida ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish metodikasi va metodologiyasi bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy topilmalar tarixi bilan tanishtirish ijobiy ta'sir qiladi.

Birinchi kurslardan boshlab, hamma tadqiqotlarning natijasi kurs va diplom ishlari himoyasi hamda dastlabki chuqur ilmiy ish hisoblanadi. Bu ishlarni ilmiy to'garaklarda qatnashgan talabalar muvaffaqiyatli bajaradilar. Shunday qilib, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati ularning aqliy faolligini oshiradi, o'quv materialini ijodiy o'zlashtirishga yordam beradi, ilmiy tafakkurni rivojlantiradi, shaxsning kasbiy muhim xislatlarini shakllantiradi. Talabalar o'quv va ilmiy faoliyatlari samaradorligini oshirishning shartlari ma'lumki, talabalarning yetakchi faoliyati o'qish hisoblanadi. O'quv faoliyati jarayonida mutaxassislarini tayyorlashning asosiy maqsadlariga enshiladi. O'qish faoliyati talaba psixik jarayonlarining xususiyatlari rivojlanishiga, kasbiy muhim bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni

egallashga ta'sir ko'satadi. Agar o'qish ijodga aylansa, talabalarning hissiy sohasiga ijobiy ta'sir qiladi, diqqat va xotirasini rivojlantiradi, qoniqish hissini paydo qiladi, bilish faoliyatiga qiziqish ortadi.

Bilamizki o'tkazgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, birinchi va ikkinchi kurslarda auditoriyada beriladigan vazifalarga qiziqish kuchli bo'ladi. Yuqori kurslarda esa, auditoriyadan tashqari vazifalarga va mutaxassislikka bog'liq fanlarni chuqur o'rganishga qiziqish kuchayadi. Shuning uchun talabalarning o'quv faoliyatini rejalashtirishda ularning bu xususiyatlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Oliy o'quv yurtidagi o'quv yuklamalari hajmi shundayki, ulami muvaffaqiyatli bajarish uchun kuchli motivlar kerak. A.N.Leontev, L.N.Bojovich, P.Ya.Yakobson, V.Okon va boshqalarning tadqiqotlaridan ma'lum bolishicha, talaba va o'quvchilar ijobiy motivatsiyasiz majburlab o'qitilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin emas.

O'quv motivatsiyasi o'zgaruvchidir. O'qishning birinchi oylarida u juda kuchli bo'ladi, talabalarning uchdan bir qismida o'zgarishsiz qoladi. O'quv motivatsiyasiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: mashg'ulotlarning mazmuni, o'qitish metodikasi, o'qituvchining shaxsi, talabalar jamoasidagi o'zaro munosabat, erishilgan natijalar va musobaqalar. Ko'pincha talabalar o'qitish darajasidan norozi bo'ladilar. Ijodiylik, diagnostikalashga e'tibor berilgan o'quv faoliyati ular uchun qiziqarlidir. Talabalarning o'quv faoliyati respublikamizda E.G.G'oziyev rahbarligida uning shogirdlari tomonidan zo'r qiziqish bilan o'rganildi. Jumladan, X.A.Ruxiyeva "Talabaning o'quv faoliyatini o'zi boshqarishning psixologik xususiyatlari" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasida umumlashgan o'quv faoliyati usullari sistemasi orqali o'quv faoliyatining boshqarish metodlarini ishlab chiqdi. Uning ta'kidlashicha, o'quv faoliyatini boshqarish deganda, maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, si sternal ashtiriladigan, nazorat qilinadigan, tashkil qilinadigan, mustaqil bilim olishga qodir boigan faoliyat tushunildi, Talabalar faoliyatida shaxs xususiyatlari, talabalar faoliyatini boshqarishda shaxsning yo'nalganligi, temperament, xarakter va qobiliyatlarni hisobga olish muhim.

Yoʻnalganlik - talaba shaxsining muhim xislatlaridan biri. U xulq-atvor maqsadi va motivlarida, ehtiyojlarda, qiziqishlarda, eʼtiqodda namoyon boiadi. Talabalar faoliyati va xulq-atvoridagi farqlar ular temperamentidagi farqlarga bogʻliq boiadi. Talabalar faoliyatida ularning xarakteri ham namoyon boiadi. Xarakter - inson xulq-atvoriga taʼsir etuvchi nisbatan barqaror psixik xislatlar majmui. Talabalar faoliyatida ularning qobiliyatlari ham namoyon boiadi Qobiliyatlar - bu oliy oʻquv yurti dasturmi muvaffaqiyatli egallash, boʻlgʻusi mutaxassis sifatida yetilishga yordam beradigan psixologik xususiyatlar. Talabalarda qobiliyatlam rivojlantirishning sharoitlaridan biri boʻlgʻusi kasbga qiziqish, mehnatsevarlik, tirishqoqlik, oʻz tayyorgarligi uchun javobgarlikni tushunish kabilami rivojlantirish hisoblanadi. Eng talantli kishilar ham oʻz layoqatlarini rivojlantirish uchun tinmay mehnat qilishlari kerak. Demak, talabalami oʻz qobiliyatlarini oʻzlari tarbiyalashga yoʻnaltirish foydalidir. Pedagogika oliy oʻquv yurtida boiajak oʻqituvchilami psixologik-pedagogik jihatdan tayyorlashni takomillashtirish talabalardagi oʻz kasbga boigan psixologik qarashni qayta qurish hamda “ideal oʻqituvchi” obraziga tayangan holda olib borilishi zarur. Kasbiy faoliyat boiajak oʻqituvchi shaxsini rivojlantirishning asosiy vositasi ekanligi sababli talabalaming uzluksiz amaliyotda qatnashish jarayonim sifat va miqdor jihatdan kuchaytirish lozim. Oliy taʼlim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyalash ishlarini tashkillashtirish, talabalami diagnostika qilishda oʻspirinlammg ikkinchi davr xulqqa, voqelikka baho berganda qatʼiyatlilik xususiyati bilan farqlanishini inobatga olish oʻta muhim. Talabaning har doim ham prinsipial boʻla olmasligi ulaming xohishlari bilan mavjud imkoniyatning nomutanosibliigi tufayli sodir boʻladi va koʻp hollarda kattalar bilan turli nizolaming kelib chiqishiga sabab boʻladi. Yuqorida aytilganlardan qatʼiy nazar, yoshlaming oliy oʻquv yurtlarida oʻqishlari oʻz kuchlari, qobiliyatlari va ichki imkoniyatlariga umid his-tuygʻulanni vujudga keltiradi. Odatda talabalar 2-3 kurslarda oliy oʻquv yurti va mutaxassislikni toʻgʻri tanlashgam haqida yana jiddiy oʻylay boshlaydilar. Mazkur yosh davrida oʻzini boshqarishning tarkibiy qismlari: ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba, oʻzlashtirgan bilimlanni tartibga

solish asosida his-tuygular, axloqiy qadriyatlar, qarashlar, o'zlikni anglash va barqaror e'tiqod shakllanadi. Talaba hukm va xulosa chiqargach, o'z xatti-harakatida qat'iy turib ulami himoya qiladi va turli kasbiy sohalar bo'yicha har xil darajadagi ko'nikma va malakalarga nazariy bilimlar, ijtimoiy-psixologik tushunchalarni amaliy faoliyatga tadbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Oliy ta'lim tizimida pedagogik diagnostika va korreksiyalash ishlarini tashkillashtirishda talabalar duch keladigan quyidagi qiyinchiliklarni inobatga olish lozim:

1. Ijtimoiy qiyinchiliklar: hayot va faoliyatning barcha jabhalarida mustaqillikka o'rgatish, irodaviy kuchli bo'lish, aqliy qobiliyatlar bo'yicha qat'iyatlilik va boshqalar.

2. Fanlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar: umumiy o'rta ta'lim maktabi va oliy o'quv yurtidagi o'quv materiallarining mazmun va kolami jihatidan keskin farqlanishi, o'quv matni mazmunlarining murakkabligi, muammolarning ilmiyligi, talabalarning mustaqil bilim olishga ko'nikma va malakalarining yetishmasligi hamda boshqalar.

3. Kasbiy qiyinchiliklar: tanlangan mutaxassislikning ular uchun ahamiyatlilikidan ikkilanish, oliy o'quv yurti shart-sharoitlariga moslashish jarayonini noto'g'ri tasavvur qilish, ta'lim olish ishlarini hamda vazifalarni, bilim, ko'nikma, malaka va odatlarini egallashda orqada qolish, turli xususiyatga ega bo'lgan mutaxassislik - ixtisoslik amaliyotidan unumli foydalana olmaslik, tanlangan kasb talablariga javob bera olmaslik va boshqalar. Oliy ta'lim muhitida bu qiyinchiliklarning barchasini bartaraf etishda pedagogik diagnostika va korreksiyalash ishlari talabaning o'ziga xos tipologik va yosh xususiyatlari, jinsi, aqliy imkoniyatlari, aql-zakovati, axloqiy fazilatlari, etnik alomatlarini inobatga olgan holda olib borishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Teslenko A. N. YUnogika integrativnoe napravlenie nauchno-pedagogicheskogo osmysleniya fenomena molodeji // Vestnik APN Kazaxstana. 2016. № 5. S. 19—28.
2. Mudrik A. V. Vospitanie starsheklassnikov. M. :Prosveshchenie, 1976. S. 5.
3. Semenova V. V. Sotsiologiya molodeji // Sotsiologiya v Rossii / pod red. V. A. YAdova. M., 1998. S. 140—141.
4. Ramazonov, J. D. Talabalar ta'lim jarayonida o'zini o'zi idora qilishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Obrazovanie i nauka v XXI veke. Mejdunarodnyy nauchno-obrazovatelnyy elektronnyy jurnal. Выпуск, (14), 794-800.
5. Ramazonov, D. J. (2022). Modelirovanie mexanizmov samoupravleniya studentov. Science and Education, 3(4), 1003-1011.
6. Ramazonov, J. J. (2021). Talaba-yoshlarda o'zini o'zi idora qilishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Innovation in the modern education system: a collection scientific works of the International scientific conference (25th March, 2021). Washington, USA:" CESS, 165.
7. Djalolovich, R. J. (2023). NIKOH-OILA MUNOSABATLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(3), 473-477.